

XALQARO BAHOLASH DASTURLARIDAGI MANTIQUIY FIKRLASHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI

Pardayev Asror Ikromovich

Samarqand davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich va maktabgachata'lim metodikasi kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada PISA va TIMSS xalqaro baholash dasturlarida qo'llaniladigan mantiqiy fikrlashga oid topshiriqlarning xususiyatlari tahlil qilinadi va ularni O'zbekiston umumta'lim maktablari matematika darslariga moslashtirishning ilmiy-metodik yondashuvi ishlab chiqiladi. Tadqiqotda kompetensiyaviy yondashuv, real hayotiy kontekst, modellashtirish va mantiqiy xulosa chiqarish kabi asosiy talablar o'rganilgan. Maqola matematika darslarida o'quvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtirish, muammo yechish madaniyatini shakllantirish va xalqaro baholashlarda natijalarni yaxshilashga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: mantiqiy fikrlash, modellashtirish, muammo yechish, kompetensiya, matematika, metodika.

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В МЕЖДУНАРОДНЫХ ПРОГРАММАХ ОЦЕНИВАНИЯ

Аннотация В данной статье анализируются особенности заданий на логическое мышление, используемых в международных оценочных программах PISA и TIMSS, и разрабатывается научно-методический подход к их адаптации к урокам математики в средних школах Узбекистана. В исследовании рассматриваются основные требования, такие как компетентностный подход, практическое использование, моделирование и логический вывод. В статье представлены методические рекомендации, способствующие активизации мышления учащихся на уроках математики, формированию культуры решения задач и повышению результатов на международных оценочных мероприятиях.

Ключевые слова: логическое мышление, моделирование, решение задач, компетентность, математика, методология.

SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF LOGICAL THINKING IN INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAMS

Abstract. This article analyzes the characteristics of logical thinking tasks used in the international assessment programs PISA and TIMSS and develops a scientific and methodological approach to adapting them to mathematics lessons in secondary schools in Uzbekistan. The study examines the main requirements such as a competency-based approach, real-life context, modeling, and logical inference. The article contains methodological recommendations that serve to activate students' thinking in mathematics lessons, form a culture of problem solving, and improve results in international assessments.

Keywords: logical thinking, modeling, problem solving, competency, mathematics, methodology.

Kirish. So‘nggi kunlarda yurtimizda xalq ta‘limi sohasida juda ko‘p o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Bulardan biri boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni bilimini baholashda xalqaro ta‘lim dasturlari mavjud. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish choratadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 8- dekabrda 997-sonli qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta‘lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etildi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish ularning umumiy kognitiv rivojlanishi va o‘quv muvaffaqiyatida hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Mantiqiy fikrlash bolalarga nafaqat matematik tushunchalarni tushunishga yordam beradi, balki tanqidiy muammolarni hal qilish va vaziyatlarni tizimli tahlil qilish qobiliyatini ham rivojlantiradi. Borgan sari globallashib borayotgan dunyoda turli ta‘lim tizimlarida o‘quvchilarning mantiqiy tafakkuri qanday rivojlanayotganini tushunish o‘qitish metodologiyasini takomillashtirish uchun hal qiluvchi ahamiyatga

ega bo'lishi mumkin. Fanlarni o'rganish tendentsiyalari (TIMSS) va Xalqaro o'quvchilarni baholash dasturi (PISA) kabi xalqaro baholash dasturlari turli mamlakatlardagi boshlang'ich maktab o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish bo'yicha qimmatli tushunchalarni beradi.

Asosiy qism

Bu jarayon doirasida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan STesting platformasi ishlab chiqilgan. Ushbu platforma o'quvchilarning PISA, PIRLS, va TIMSS baholash dasturlariga tayyorgarligini kuchaytirish maqsadida turli xil test va nazorat topshiriqlari, mediakurslar va video qo'llanmalarni o'z ichiga oladi. Platformada 1449 ta test topshirig'i va 103 ta mediakurs joylashtirilgan. 2022-yilda 3 milliondan ortiq o'quvchi ushbu platforma orqali o'z bilimlarini sinab ko'rgan va natijalari malakali pedagoglar tomonidan baholangan. Ta'lim sifatini oshirish uchun o'qituvchilar xalqaro talablar asosida malaka oshirish kurslarida qatnashmoqda. Ushbu kurslar orqali ularga o'quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha metodik yordam berilmoqda. Natijada, maktab o'quvchilarining real hayotiy vaziyatlarda bilim va ko'nikmalarini qo'llash salohiyatini oshirishga alohida e'tibor qaratilgan. O'zbekistonning xalqaro baholash dasturlarida ishtiroki milliy ta'lim tizimini takomillashtirish, global standartlarga moslashtirish va mamlakatning ta'lim sohasidagi xalqaro nufuzini oshirishga xizmat qilmoqda[1].

O'zbekiston ta'lim tizimining xalqaro baholash dasturlari asosida rivojlanishi va o'quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar keng miqyosda davom etmoqda. Ushbu jarayonlar mamlakatning ta'lim tizimini global talablarga moslashtirish, o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va raqobatbardosh bilimlarni shakllantirishga qaratilgan.

Bu dasturlar o'quvchilarning bilimini emas, balki ularning bilimni qanday qo'llay olishlarini, real hayotdagi muammolarni hal qilishdagi mantiqiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini ham baholaydi. Xalqaro reytinglar, jumladan PISA, o'quvchilarning matematik, ilmiy va o'qish ko'nikmalarini o'lchaydi. Ushbu

baholashlar nafaqat o'quvchilarning bilimlarini, balki ularning muammolarni qanday hal qilish va mantiqiy fikrlashini o'lchashda ham katta ahamiyatga ega. Shunday qilib, O'zbekiston ta'lim tizimi bu dasturlarga tayyorgarlikni o'zining rivojlanishining muhim bosqichi sifatida qabul qildi. Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, shuningdek, o'qituvchilarni malakasini oshirishga qaratilgan. O'qituvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan uslubiy qo'llanmalar va treninglar mavjud. Shuningdek, maxsus tayyorgarlik kurslari va seminarlar o'tkazilib, o'qituvchilarni xalqaro baholash dasturlarining metodologiyasiga mos ravishda o'qitish uchun zarur bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlamoqda[2].

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassislariga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o'z-o'zidan o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasi har tomonlama e'tiborni kuchaytiradi. Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lmish yoshlarni ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo'lda xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir.

“Mantiqiy tafakkurni shakllantirish metodikasi” modulining maqsadi: pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursi mutaxassislik fanlari blokidagi asosiy modullardan biri bo'lib, unda mantiqiy tafakkur to'g'risidagi zamonaviy konsepsiyalar, o'qitishning yangi usul va vositalari, istiqboldagi vazifalarni, falsafa fanini o'qitish sohasidagi tajribalarni umumlashtirish, mavjud muammolar, ularning yechimlarini aniqlash maqsad qilib qo'yilgan[3].

Modulning vazifalari:

- Zamonaviy talablarga mos holda oliy ta'limning sifatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan pedagoglarning kasbiy kompetentlik;

- mantiq fanining fikrlash madaniyatini o'stirishdagi ahamiyati to'g'risida tushunchalar berish;

- oliy ta'lim muassalari pedagog kadrlarini "Falsafa" sohasidagi yangi adabiyotlar, yondoshuvlar va yangiliklar bilan tanishtirish.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar "Mantiqiy tafakkurni shakllantirish metodikasi" modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida

Tinglovchi:

- mantiqiy muammolarini va uning rivojlanish istiqbollarini; - mantiq fanining joriy holati va istiqboldagi vazifalarini;

- mantiq o'qitishda foydalaniladigan zamonaviy amaliy dasturlar majmualarini;

- mantiqiy tafakkurni shakllantirish metodikasi hamda uning fikrlash madaniyatini o'stirishdagi ahamiyatini bilishi zarur;

Tinglovchi:

- ilmiy-tadqiqot ishlarida mantiqning zamonaviy masalalarga yondashish uslubiyatini to'g'ri tanlash;

- taraqqiyotning mantiqiy tafakkur modellarini tahlil qilishda falsafiy metodlardan foydalanish;

- darsni samarali tashkil etish, o'quv jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak:

Tinglovchi:

- falsafiy bilimlarni o'rganish orqali diskursiv (asoslangan) fikr yuritish;

- mantiqning zamonaviy yo'nalishlarini ishlab chiqish va ommalashtirish;

- globallashtirish jarayonidagi muammolarni aniqlash va tahlil qilish;

- fanning ilmiy, nazariy, tarixiy va progmatik ahamiyatini hayotiy voqelik va ilmiy asosda tushuntirib berish;

- falsafiy manbalardan zarur va muhim bo'lgan ma'lumotlarni ajratib olish, ularni izchil tizimga keltirib, talqin qilish malakalarga ega bo'lishi kerak[4]:

Tinglovchi:

- mantiq fanida innovatsion o'quv mashg'ulotlarini loyihalash, amalga oshirish, baholash, takomillashtirish;

- mantiq fanining insonning jamiyatda tutgan o'rnini bugungi kun bilan taqqoslash;

- mantiqiy tafakkurning dolzarb masalalariga oid zamonaviy manbalardan foydalana olish kompetensiyalarni egallashi lozim.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi "Mantiqiy tafakkurni shakllantirish metodikasi" moduli o'quv rejadagi birinchi blok va mutaxassislik fanlarining barcha sohalari bilan uzviy bog'langan holda pedagoglarning umumiy tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi. Modulning oliy ta'limdagi o'rnini. "Mantiqiy tafakkurni shakllantirish metodikasi" modulini o'zlashtirish orqali tinglovchilar ta'lim jarayonini tashkil etishdagi texnologik yondoshuv asoslarini, bu boradagi ilg'or tajriba va yangiliklarni o'rganadilar, ularni taxlil etish, amalda qo'llash va baholashga doir kasbiy yutuqlarga ega bo'ladilar.

Xulosa.

O'zbekiston ta'lim tizimi xalqaro baholash dasturlari asosida o'quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirayotgan bir davrda, ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilarning global talablar asosida raqobatbardoshligini ta'minlashni o'zining asosiy maqsadi sifatida belgilagan. Xalqaro baholash dasturlari, xususan, PISA va TIMSS kabi tizimlar, o'quvchilarning faqatgina bilimni emas, balki ularning mantiqiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini o'lchash orqali, ta'lim tizimining jahon bo'ylab o'z o'rnini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pardayev A. O‘rinboyev Z. Boshlang‘ich sinflarda axborot texnologiyasi. o‘quv qo‘llanma. SamDCHTI tahtir-nashiriyot. 2024.
2. M.Abdullayeva, M.Qurbonova, G.Tojiboyeva, X.To‘xtamatov, Z. Boshlang‘ich sinflarda axborot texnologiyasi. Darslik. Toshkent. 2021.
3. Hobbs R. *Digital and Media Literacy: Connecting Culture and Classroom*. Corwin Press, 2011.
4. Ибраимов Х. И. Таълим жараёнига сунъий интеллектни жорий қилишнинг педагогик-психологик аспекти.
5. Ibragimov A. A., Fayzullayeva G. Sh. Kognitiv inqilob – zamonaviy tadqiqotlar va raqamli ta’limning asosi sifatida.
6. Anderson, D., & Collins, P. (2020). *Critical Thinking and Media Literacy in Education*. Cambridge University Press.
7. Buckingham, D. (2015). *Media Education: Literacy, Learning and Contemporary Culture*. Polity Press.
8. Qodirov, A. (2022). O‘zbekistonda mediasavodxonlik asoslari. Toshkent: Fan nashriyoti.
9. Hasanov, B. (2023). Tanqidiy fikrlash va uni ta’limda rivojlantirish metodlari. Samarqand: SamDU nashriyoti.
10. UNESCO (2019). *Media and Information Literacy Curriculum for Teachers*. Paris: UNESCO Publishing.